

TURK XOQONLIGI DAVRI VOHA HUKMDORLIKLARI MUNOSABATLARIDA BOYSUNNING O‘RNI



**Odinayev
Chingiz
Tog‘aymurat
o‘g‘li,**
tayanch
doktorant

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Turk xoqonligi tarkibidagi Toxariston voha hukmdorligiga qarashli Chag‘oniyon mulkligining, xususan, Boysunning qo‘shni hududlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari keng yoritiladi. Shuningdek, Boysunning voha hukmdorliklar va mulkiklar bilan munosabatlardagi tarixiy ro‘li va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Boysun haqida xitoy sayyohlari esdaliklaridagi ma‘lumotlar atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, turli manbalarda yozib qoldirilgan xoqonlik davrida Chag‘oniyon boshqaruv tizimidagi unvonlar haqidagi ma‘lumotlar qiyosiy o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar:

Turk xoqonligi, Chag‘oniyon, Chag‘onxudotlar, boshqaruv, unvonlar tizimi, Budrach, Boysun.

THE ROLE OF BOYSUN IN THE RELATIONS OF OASIS PRINCIPALITIES DURING THE TURKIC KHAGANATE PERIOD

Annotation:

This article broadly examines the political, socio-economic, and cultural relations of the Chag‘oniyon principality—particularly Boysun—within the Tokharistan oasis polity under the Turkic Khaganate, with its neighboring regions. It also provides an in-depth analysis of the historical role and significance

of Boysun in its relations with other oasis polities and principalities. Furthermore, the information about Boysun found in the accounts of Chinese travelers is comprehensively analyzed. In addition, data on the system of titles within the administrative structure of Chag‘oniyon during the Khaganate period, as recorded in various sources, are comparatively studied.

Keywords:

Turkic Khaganate, Chag'oniyon, Chag'onkhud ots, governance, system of titles, Budrach, Boysun.

РОЛЬ БАЙСУНА В ОТНОШЕНИЯХ ОАЗИСНЫХ ВЛАДЕНИЙ В ПЕРИОД ТЮРКСКОГО КАГАНАТА

Аннотация:

В данной статье подробно освещаются политические, социально-экономические и культурные связи владения Чаганиан, входившего в состав Тохаристанского оазисного государства в системе Тюркского каганата, в частности Байсуна, с соседними регионами. Также глубоко анализируется историческая роль и значение Байсуна в его взаимоотношениях с другими оазисными государствами и владениями. Кроме того, всесторонне рассматриваются сведения о Байсуне, содержащиеся в записках китайских путешественников. Наряду с этим проводится сравнительное исследование данных о системе титулов в управлении Чаганиана в период каганата, зафиксированных в различных источниках.

Ключевые слова:

Тюркский каганат, Чаганиан, чаганианские худаоты, управление, система титулов, Будрач, Байсун.

Kirish.

Bahor faslining kirib kelishi bilan yangilanish, uyg'onish va turli bayram hamda marosimlarning boshlanishi tabiiy hol sifatida qaraladi. Asrlar davomida shakllangan urf-odat va an'analar aynan shu marosimlar orqali bugungi kungacha yetib kelgan. Shu faslda mamlakatimizda UNESCO homiyligida o'tkaziladigan "Boysun bahori" festivali ham ana shunday qadimiy an'analarni aks ettiradi. Biz ilk o'rta asrlar davrida davlatchiligimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida Boysun hududlarining ro'li va ahamiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Turk xoqonligi siyosiy kurash maydoniga chiqib, Eftalitlar davlatini mag'lubiyatga uchratgach Boysun ham Turk xoqonligi tarkibiga kiritilgan. Bu haqida ilk o'rta asr xitoy manbalari - "Bey-shi", "Suy-shu" va "Tan-shu" yilnomalarida 550-560-yillar oralig'ida Turk xoqonligi (Tu-kyue) Juan-juan xoqonligini tor-mor etib, oradan ko'p o'tmay g'arbdagi Ida (Eftalitlar) davlatini mag'lubiyatga uchratgani va uning tasarrufidagi hududlarni o'z nazoratiga olgani¹ haqidagi ma'lumotlarga tayanib, Boysun ham xoqonlik tarkibiga kiritilganini bilishimiz mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar Eftalitlarning mag'lubiyatga uchratilishining aniq sanalari sifatida 563-567-yillar oralig'ini ko'rsatishadi. Chunki vizantiyalik tarixchi Menandring keltirib o'tgan ikkita matnini solishtiradigan bo'lsak, 562-yilga tegishli birinchi matnd a xoqon eftalitlar bilan munosabatlar yaxshi emasligiva ular bilan urush tugagach avarlar yurtiga urush boshlashini aytadi. 568-yilgi ikkinchi matnda esa Istaming elchilari Eftalitlar to'liq tor-mor qilinganini ta'kidlashadi². O'rxun-Enasoy yodgorliklarida esa xoqonlik hududi sharqda hozirgi Xingan tog'larigacha, g'arbda esa Temir Qapig'acha (Temir darvoza) ya'ni Boysun tog'larigacha yetib borganligi aytiladi. Shuningdek, xoqonlik va uning ittifoqchisi bo'lgan Sosoniylar Eroni Eftalitlar yerlarini o'zaro taqsimlab olishgach, chegara sifatida Amudaryo belgilanadi³.

Adabiyotlar tahlili:

Turk xoqonligi davri voha hukmdorliklari, uning davlatchilik tarixidagi ro'li masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, G.Pugachenkova va E.Rtveladze o'z izlanishlarida shimoliy Toxaristonni tarixini o'rganish jarayonida ushbu masalag bir qadar to'xtalib o'tgan bo'lsa, tadqiqotchi T.Annayev ishlarida arxeologik jihatdan tadqiq etilgan.

Shuningdek, turkolog F.Jumaniyazovanning ilmiy tadqiqotlarida ham Chag'oniyon tarixini o'rganish jarayonida bu masalaga batafsilroq to'xtalishga harakat qilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonlik ko'plab olimlar va tadqiqotchilar bu masalaga ilmiy jihatdan yondoshib, chuqurroq tahlil qilishga harakat qilmoqdalar.

1 Сулайманова С.Б. Сугд воҳасида Ғарбий Турк хоқонлигининг бошқаруви. Қарши – 2022. –Б. 44.

2 havannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. –Р. 289.

3 Джуманиязова Ф. История Тохаристанских Ябгу и Тегиншахов Кабула. Нур-Султан :«Гылым» баспасы, 2021.–С. 28-29.

Tadqiqot metodologiyasi:

Maqola umumiy tarixiy tadqiqotlarga xos boʻlgan metodologik yondashuvlar asosida yozilgan. Xususan, unda tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik va xolislik tamoyillariga amal qilindi. Voqealar va jarayonlar tarixiy manbalar asosida ketma-ketlikda tahlil qilinib, Turk xoqonligi davrida Chagʻoniyonning tarkibiy qismi boʻlgan Boysunning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti Turk xoqonligi davridagi umumiy siyosiy kontekstda koʻrib chiqildi. Shuningdek, turli davr va mintaqalarga oid maʼlumotlar oʻzaro solishtirilib, mavjud ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar:

Turk xoqonligi qoʻshinlari Shimoliy Toxariston yerlariga Temir darvoza yaʼni, aynan, Boysun togʻlari orqali kirib kelgan. Chunki Sugʻddan Toxaristonga oʻtadigan eng qulay yoʻllardan biri shu yerdan oʻtgan. Turk-sosoniy harbiy mojarolari Toʻng Yabgʻu-xoqon davrida turklar foydasiga hal boʻlib, Toxariston toʻliq xoqonlik tasarrufiga olinadi. Shuningdek, Toxaristonda boshqaruv ishlari xoqonning oʻgʻli Tardu shadga topshiriladi⁴. Maʼlumki, tarixan Boysun hududi Chagʻoniyonning tarkibiy qismi boʻlgan hamda shimoliy yoʻnalish boʻylab qoʻshni hukmdorliklar, xususan, Sugʻ bilan iqtisodiy va maʼnaviy aloqalarda tayanch hududlardan biri sanalgan. Chagʻoniyon janubdan Sarmangan (Jarqoʻrgʻon), shimoldan Novandak (Surxonning boshlanishi), gʻarbdan Dari Oxanin (Temir Darvoza), sharqdan Bobotogʻ osha Kofirnixon, Amudaryogacha boʻlgan hududni oʻz qamroviga olgan jannatmakon oʻlka boʻlgan. Hozirgi xaritada tasavvurda Surxondaryo viloyatining taxminan Jarqoʻrgʻon, Bandixon, Boysun, Qumqoʻrgʻon, Oltinsoy, Shoʻrchi, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari, Tojikiston Respublikasining baʼzi tumanlarining umumiy hududiga toʻgʻri keladi⁵. Ilk oʻrta asrlarda Chagʻoniyon mahalliy hukmdorlar tomonidan boshqarilgan boʻlib, hukmdorlarga “chagʻonxudot” unvoni berilgan. Chagʻoniyonning markazi Budrach shahri boʻlgan⁶.

Xitoylik sayyoh 7 asrda oʻz sayohati davomida Toharistonni 27 ta mulklikdan iboratligini yozib, uning tarkibidagi mulklardan biri Chagʻoniyon haqida ham quyidagi maʼlumotni qoldirgan. Xitoy sayyohi Syuan Syanga koʻra, Chagʻoniyonning sharqdan gʻarbgacha uzunligi 400 Li, shimoldan janubga uzunligi 500 Li uzunlikdadir. Poytaxt Budrach shahrining kengligi esa 10 Li kattaligidadir⁷.

Xitoy sayyohi Syuan Syan esdaliklarida Boysun haqida qisman maʼlumotlar saqlanib qolgan. Uning esdaliklarida Temir darvoza (Tʻieh-men) haqida quyidagi

axborot keltirib oʻtilgan. “Tʻieh-men oʻng va chap tomondan ikki togʻ bilan tutashgan. Togʻlar nihoyatda baland va tik qoyali. Bu yerda tor bir dovon boʻlishiga qaramay, undan oʻtish baribir qiyin va xavflidir. Dovonning ikki tomonidagi devorga oʻxshash qoyalar temir rangidadir. Bu yerga yogʻochdan yasalgan darvoza oʻrnatilgan boʻlib, u temir parchalar bilan mustahkamlangan. Darvoza ustiga koʻplab qoʻngʻiroqlar osilgan. Bu joydan oʻtish qiyin va juda yaxshi qoʻriqlanganligi sababli, bu dovon shu nom bilan atalgan”.

Bundan shuni anglash mumkinki, Boysun Sugʻddan Toxaristonga oʻtishdagi muhim strategik yoʻnalish hisoblangan. Shuningdek, xavfsizlik nuqtayi nazardan bu yerda kuchli harbiy qism joylashgan. Shimoldan janubga harbiy qoʻshin aynan Temir darvoza (turkcha- Temir Qapigʻ, forscha -Dari Ohanin) orqali oʻtgan. Bu yoʻl Boysun togʻ tizmasida joylashgan 10-18 metr kenglikdagi 3 km uzunlikdagi muhim strategik oʻtkazgich hisoblangan⁸. Bundan tashqari, savdo karvonlari ham shu yoʻl orqali oʻtgan hamda oʻtib qaytuvchi qoʻshin va karvonlar toʻliq nazoratda tutilgan. Bir soʻz bilan aytganda Boysun mustahkam harbiy qalʼa vazifasini oʻtagan. Shuningdek, ushbu qalʼa-qoʻrgʻon hozirgi Darband qishlogʻiga toʻgʻri keladi.

Arxeologik tadqiqotlarga koʻra, Boysun tumanida ilk oʻrta asrlarga oid bir qator arxeologik manzilgohlar topib oʻrganilgan. Ular qatoriga Oqtepa, Azizqoʻnishtepa, Nomsiztepa, Qoʻrgʻoni bolo, Mozortepa, Munchoqtepa va Laylagan kabi manzilgohlarni kiritish mumkin⁹. Bu manzilgohlarni oʻrganish natijasida shunisi maʼlum boʻldiki, V-VIII asrlarda Boysun hududida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot gullab yashnagan. Shuni ham taʼkidlash kerakki, Boysunning qadimiy Basand qishlogʻi XVII boshidan boshlab Boysun shaklida manbalarda uchray boshlaydi.

Turk xoqonligi davrida Chagʻoniyon katta va qudratli mulkka aylangan hamda mazkur mulklikning mahalliy sulolalari hukmronlik qilgan. Manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, ilk oʻrta asrlarda Chagʻoniyonda 3 ta sulola hukmronlik qilgan. 1.Noaniq ismli xidevlar sulolasi, V asr oxiri-VI asr oʻrtalari.

2. Faganpish sulolasi, VI asr oʻrtalari-VII asr boshlari.

3. Chagʻonxudotlar sulolasi, VII asr boshi-VIII asrning uchinchi choragi.

Shuningdek manbalarda keltirilishicha, Chagʻoniyonda αρωτιγιο/αδο, Turantosh, Ti-cho(Tish), Xnarxidew kabi hukmdorlar hokimiyatni boshqarishgan¹⁰. Bundan

4 Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). – Ташкент: Фан, 1990. –С 220.

5 Chagʻoniyon tarixi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2002. – B. 3.

6 Джуманиязова Ф. История Тохаристанских Ябгу и Тегиншахов Кабула. Нур-Султан :«Гылым» баспасы, 2021.–С. 113.

7 Ekrem E. Hsüan Tsang Seyahatnamesine Göre Gök Türkler, Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2005. –S. 142.

8 Ekrem E. Hsüan Tsang Seyahatnamesine Göre Gök Türkler, Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2005. –S. 140-141.

9 Chagʻoniyon tarixi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2002. – B. 65-66.

10 Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). –

shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu davr boshqaruv tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur sulola vakillari Chagʻoniyon tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda, xususan, Boysunda ham oʻz qarindoshlari yoki yaqinlari orqali boshqaruvni amalga oshirishgan.

Ushbu sulola vakillaridan biri Tish 719-yilga oid maʼlumotlarda Toxariston konfederatsiyasining rahbari-Toxariston yabgʻusi sifatida tilga olinadi. 709-710-yillarda Qutayba tomonidan Nizek Tarxon oʻldirilgandan soʻng Chagʻoniyon hukmdori Tish Toxariston yabgʻusi boʻlgan¹. Bu esa xoqonlik hududiga arablar kirib kelgan paytda konfederatsiya ichida Chagʻoniyonning mavqei juda yuqori boʻlganligidan dalolat beradi. Bu oʻlkaning hukmdorlari boshqa davlatlar bilan diplomatik, diniy va sulolaviy aloqalarni ham yoʻlga qoʻygan. Masalan, Afrosiyob saroyidagi sugʻdiy yozuvga koʻra, Samarqand hukmdori Varhuman huzuriga Chagʻoniyon hukmdori Turontoshning elchisi hashamatli sovgʻalar bilan birga kelin bilan ham kelganligi qayd etilgan. Elchilikka bosh boʻlgan kishi Pukarzoda ismli dapirpat boʻlgan².

Mazkur mulklikning qoʻshni hukmdorliklar bilan elchilik aloqalarining oʻrnatilishi va bu aloqalarning nikoh orqali mustahkamlanishi Chagʻoniyonning oʻz davrida keng siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalaridan dalolat beradi. Shuningdek, 719-yilda chagʻonxudot tomonidan Xitoyga elchilik ham yuborilgan. Bu elchilikka manixeylik oqimining yirik arbobi- Buyuk Mojo boshchilik qilgan. B.A. Litvinskiy tadqiqotlariga koʻra, Chagʻoniyon aholisi zardushtiylik bilan birga manixeylik bilan ham yaqin aloqada boʻlgan³. Syuan Syan keltirgan maʼlumotlardan esa Chagʻoniyon aholisining buddaviylik diniga eʼtiqod qilishi va mazkur mulklikda 5 ta buddaviy ibodatxonalar boʻlganligi haqida xabardor boʻlish mumkin⁴. Mazkur mulklik aholisining bir nechta dinga eʼtiqod qilishi xoqonlik tarkibidagi turli hukmdorliklar bilan keng madaniy aloqalar rivoj topganligidan ham dalolat beradi.

Shunday qilib, Turk xoqonligi davrida Chagʻoniyonning boshqaruv bevosita xoqonlik nazoratida boʻlmasa-da, xoqonlikka boʻysunuvchi mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan. Buni boshqaruv tizimidagi chagʻonxudot va dapirpat kabi unvonlarning qoʻllanishda davom etishida ham kuzatish mumkin. Ushbu mulklikda savdo-sotiq munosabatlari dastlab Sosoniy hukmdor Xusrav I tangalari namunasida zarb qilingan Chagʻoniyonning mahalliy tangalarida olib borilgan. Toxaristonda ashinaliyar sulolasi nazorati toʻliq oʻrnatilgach, xoqonlik namunasidagi tangalar muomalada boʻlgan⁵

Arxeologik tadqiqotlarga koʻra, VI-VII asrlar qurilish sohasi ham sekin boʻlsa-da taraqqiy eta borgan. Chagʻoniyonda qurilgan inshootlar asosan mudofaa vazifalarini bajarishga moslab qurilgan boʻlib, har xil qurilish rejasiga ega boʻlgan. Lekin ularning koʻpchiligi mudofaa va harbiy maqsadlar uchun qurilgan. Shahar va qishloqlarda uy-joylar ham har xil boʻlgan. Masalan, Kofirqalʼada bir nechta boy uylar qazib oʻrganilgan boʻlsa, qishloqlarda yuqori darajadagi qurilish arxitekturasi mavjud boʻlmagan hamda oddiy quruvchilar tomonidan qurilgan. Shunday boʻlsa-da, qurilish sohasida buddizm arxitekturasi namunalari saqlanishi, bino-inshootlarda tasviriy bezaklarning aks etishi⁶ sohadagi keng madaniy aloqalarga guvoh boʻlib turibdi.

Xulosa qilib aytganda,

Turk xoqonligi davrida Chagʻoniyon tarkibiga kirgan Boysun hududi voha hukmdorliklari oʻrtasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarda muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Uning geografik joylashuvi, xususan Temir darvoza orqali oʻtuvchi yoʻllar ustidan nazorat oʻrnatilishi Boysunni nafaqat harbiy-strategik, balki savdo va diplomatik aloqalarda ham tayanch hududga aylantirgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Boysun Chagʻoniyon mulkligining ajralmas qismi sifatida xoqonlik davridagi siyosiy tizimda faol ishtirok etgan hamda qoʻshni hududlar bilan oʻzaro aloqalarning rivojlanishida vositachi vazifasini bajargan. Xitoy manbalari, arxeologik topilmalar va yozma manbalar tahlili ushbu hududda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanganini, savdo yoʻllarining faol boʻlganini hamda turli diniy va madaniy oqimlar oʻzaro uygʻunlashganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Chagʻoniyon boshqaruv tizimida mahalliy sulolalarning hukmronligi va anʼanaviy unvonlar tizimining saqlanib qolganligi xoqonlikning bilvosita boshqaruv siyosatini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida hududlarda siyosiy barqarorlikni taʼminlash bilan birga, mahalliy boshqaruv institutlarining davomiyligini saqlab qolishga xizmat qilgan. Umuman olganda, Boysun ilk oʻrta asrlarda nafaqat hududiy birlik sifatida, balki mintaqaviy aloqalarni bogʻlovchi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biri boʻlib, Turk xoqonligi davridagi voha hukmdorliklari oʻrtasidagi munosabatlarda muhim oʻrin egallagan.

Тошкент: Фан, 1990. –С. 132.

1 Джуманиязова Ф. История Тохаристанских Ябгу и Тегиншахов Кабула. Нур-Султан :«Гылым» баспасы, 2021.–С. 114-116.

2 Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). –

Тошкент: Фан, 1990. –С. 135-136.

3 Б.А.Литвинский, В.С.Соловьев. Средневековая культура Тохаристана. Издательство «Наука» Москва, 1985. –С. 183.

4 Ekrem E. Hsüan Tsang Seyahatnamesine Göre Gök Türkler, Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 2005. –S. 140-141.

5 Chagʻoniyon tarixi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2002. – B. 60-61.

6 Пугаченкова Г.А, Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Очерки истории и культуры (древность и средневековье). –

Тошкент: Фан, 1990. –С. 153-154.

1-xarita. Ilk o'rtal asrlarda Chag'oniylonning siyosiy xaritasi

